

## SURXONDARYODA ARXEOLGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHI

*Boyto'rayev Sirojiddin Usmon o'g'li*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi*

*G'afurov Behruzbek Maruf o'g'li*

*Abduraxmonov Fazliddin Baxodir o'g'li*

*Sopoyev Nizom Bozorboy o'g'li*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari*

## ANNOTATSIYA

Surxondaryo viloyati Arxeologik turizmning markazlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqola, Surxondaryo viloyatining arxeologik turizm salohiyatini ochib berish bilan bir qatorda uni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yoritib beradi.

**Kalit so'zlar.** Arxeoturizm, tarixiy obidalar, madaniy meros, mehmonxonalar, mehmon uylar, madaniy meros

Turizm — iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqozo etmoqda. "O'zbekiston ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay mamlakat. Chunki ona zaminimizda butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan ajdodlarimiz mangu qo'nim topgan. Ular qoldirgan boy ma'naviy-madaniy merosga xalqaro maydonda qiziqish juda katta. Sohani yanada rivojlantirish uchun, avvalo, zarur infratuzilmani takomillashtirish shart" - deb bejiz ta'kidlamagan Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev.<sup>1</sup> Darhaqiqat bugungi kunda turizm iqtisodiyotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Yurtimizda turizmning ziyorat, rekratsion, va shunga o'xshash bir necha turlari rivojlangan. Bular qatoriga Arxeologik turizm ham asta sekin kirib bormoqda. O'zi arxeologik turizm nima? Arxeoturizm yoki arxeologik turizm - bu madaniy turizmning bir turi bo'lib, uning maqsadi arxeologiyaga va tarixiy obidalarni saqlash va ularga bo'lgan qiziqishni oshirish hisoblanadi. Arxeologik turizm amaliy arxeologiyani qo'llash sohalari qatoriga kiradi va unda jamoatchilik ishtiroki va qo'llab-quvvatlashi katta ahamiyatga ega. Arxeologik turizmning asosiy maqsadi tarixiy va qadimiy yodgorliklarni qadimiylik qiyofasini saqlab qolish va ularga bolgan qiziqishni oshirish, jamoatchilik orasida madaniy merosga nisbatan iliq fikrlarni shakllantirishdir. Arxeologiya va turizm o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik qadimiy tarixga ega bo'lib, olimlarning tahminicha u uyg'onish davriga to'g'ri keladi. Arxeologik turizm ixtisoslashgan soha sifatida madaniy merosni asrab-avaylash va targ'ib qilish sohasidagi masalaning ahamiyatini ko'rsatuvchi xususiyat va funksiyalarga ega. Arxeologik turizm insonlarni madaniy meros bilan tanishtiradi va insonlarda madaniy

merosga bo‘lgan nuqtai nazarni o‘zgartiradi. Arxeologiyani turizim bilan bog‘lash ham davlat iqtisodiyoti, ham madaniy meros uchun ancha foydali hisoblanadi Ayniqsa bu yo‘nalishi O‘zbekistonning janubi bo‘lmish Surxondaryo viloyatida ham tez suratlarda yuksalmoqda. Shuningdek Vazirlar Mahkamasining Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori asosida juda ko‘plab ishlar amalga oshirilmog‘da. Bu mintaqa yarim asrdan beri dunyoning arxeologlari va sayyohlarini o‘ziga jalb qiladi. Viloyatda 561ta madaniy meros obektlari ro‘yxatga olingan bo‘lsa, ularning 444 tasi arxeologik, 32 tasi islom ziyorat turizmi va 8 tasi buddizm yodgorliklari hisoblanadi. Hozirgi kunda viloyatning 101ta Turistik namoyish obektlari xizmat ko‘rsatadi<sup>2</sup>. Zurmala, Dalvarzintepa, Fayoztepa, Xolchayon, kabi uzoq o‘tmishdan so‘ylaydigan arxeologik yodgorliklarni ko‘rishga ishtiyoqmatlar safi yanada oshib boradi albatta. Surxondaryo viloyatining sayyohlar orasida eng mashhur bo‘lgan arxeologik maskani bu Teshiktosh g‘ori hisoblanadi. U viloyatning Boysun tumanidagi Zovtalashgansoy darasida joylashgan bo‘lib, ushbu manzil 1938-yilda Okladnikov tomonidan ochilgan. U M.avv 100-40 ming yilliklarga ya‘ni o‘rta paleoklitga tegishli hisoblanadi. Eng muhim tarafi esa bu maskandan 8-9 yashar neandertal Bolani suyak qoldiqlari topilgan. Bundan tashqari Boysuntog‘ etaklarida topilgan Zaroutsoy va Machay g‘orlari qadimshunos sayyohlar uchun ajoyib manzilgohlar hisoblanadi. Sopollitepa Surxondaryo viloyatining eng mashhur arxeologik topilmalaridan biri hisoblanadi. U viloyatning Muzrobot tumanida joylashgan. Uning nomi mahhaliy aholi tomonidan nomlangan bo‘lib, tepalik ustida sopol siniqlari qalashib yotgani tufayli sopolli+tepa nomi bilan atala boshlangan. Bu maskanda yana bir ajoyib va mashhur arxeologik obidasi ya‘ni Jarqo‘ton majmuasi ham joylashgan. Jarqo‘ton bundan 3500-4000 yil muqaddam hozirgi Sherobod tumanidan o‘tkan ko‘hna Bo‘stonsoy daryosi yoqasida joylashgan<sup>3</sup>. Bu arxeologik majmuasi O‘rta Osiyo hudididagi ilk shahar bo‘lgan desak ham adashmaymiz. Shuni uchun ham uning xalqaro turistik salohiyati ham yuqori hisoblanadi.

Bundan bir necha yil ilgari o‘zining 2500yilligimni nishonlagan Termiz<sup>3</sup> Surxondaryo viloyatining turizm salohiyati. Toshkent “Tafakkur” 2022 10-15 betlar shahri ham o‘zining ko‘hna obidalarini bilan ham mashhur hisoblanadi. Jumladan Fayoztepa, Qoratepa, Kampirtepa va Ayritomlardir. 1968- yilda qadimgi Termiz hududida Budda haykali topildi va o‘sha vaqtdan buyon bu yer ko‘plab arxeologlar tomonidan o‘rganiladigan asosiy obyektga aylanib, buning natijasida keyinchalik qadimgi buddaviylik ibodatxonalari majmualari kashf etildi. Shu jumladan Fayoztepa, Kampirtepa, Qoratepa. qadimgi musiqachilarning tasviri tushirilgan mashhur Ayritom frizining kashf etilishi ushbu mintaqa bir vaqtlar buddaviylik targ‘ib qilinganligining dalili bo‘lib xizmat qildi va ellinistik madaniyat unsurlari aniqlandi. Hozirda frizning terrakota-barelyeflari Sankt-Peterburgdagi Davlat Ermitajida saqlanmoqda.



Fayoztepaning kashf etilishi qadimgi buddaviylik obyektlarining yangilarini kashf etish uchun birinchi turtki bo'ldi. Yo'qotilgan shahar Amudaryo sohilida Termizdan 30 km uzoqlikda qadimiy Kampirtepa shahrining xarobalari joylashgan. 2018-yilda arxeolog olimlar Iskandar Zulqarnaynning qarorgohi bo'lmish Oksdagi (Amudaryoning qadimgi nomi) Iskandariya qadimgi shahri aynan shu yerda joylashganligini isbotladilar. Buyuk sarkardaning kelishi davriga oid yangi ob'yektlar va madaniy qatlamlarning kashf etilgani bunga dalil bo'lgan. Kampirtepa shahri – xandak bilan o'ralgan ark bo'lib, ichki shahri minorali mustahkam qal'a devori bilan o'ralgan. Qadimgi shaharning qal'asida odamlar miloddan avvalgi IV asr oxirlarida yashab boshlashgan. Ichki shahar esa milodiy I asrning boshlarida qurilgan bo'lib, milodiy II asrda bu hududda Kushon podsholigi tashkil topgunga qadar mavjud bo'lgan. Antik davridagi shahar-bandargohning hududida olimlar ob'yektlarni saqlab qolish uchun noyob ishlarini olib borishdi. Hozirda Kampirtepa qal'asi YUNESKO ning butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan<sup>4</sup>. Ayritom frizi Termizdan 18 kilometr sharqda qadimiy Ayritom qal'asi joylashgan. Buddaviylik dinining eramizning boshlarida O'rta Osiyoga kirib kelishi bilan bu yerda buddaviylik diniy yodgorliklarning qurilishi boshlanadi. ”Qirq-Qiz qal'asi Eski Termizdan 3 kilometr g'arbda qadimiy qal'a joylashgan. <sup>4</sup>[www.uzbektourism.uz/surkhandarya](http://www.uzbektourism.uz/surkhandarya)

Arxeologlar qal'a qurilishining taxminiy sanasini belgilab berishgan: 9-10 asrlar, ammo XIV asrga qadar qasr bir necha bor qayta qurilgan. XX asr boshlarida boshlangan qazishmalar va tadqiqotlar davomida bu yerda ko'plab osori-atiqalar topildi: uy anjomlari parchalari, tangalar, gipsli haykallar va boshqalar. Qirq-qiz qal'asi bilan qadimgi afsona bog'liq. Bir vaqtlar bu qal'ada jasur malika Guloyim 40 nafar dovyurak jangovar hur qizlardan iborat kanizaklari bilan birga yashagan. Qadimiy qal'aning nomi mazkur qizlar nomidan kelib chiqqan. Jasur hur qizlar o'zlarining qal'alarini va bekalarini qattiq himoya qilganlar, dushmanlarning hujumlarini qaytarib, erkaklarning yaqin kelishiga yo'l qo'ymaganlar. Ammo bir kuni Kokildor-ota ismli yigit qal'aga kirishga muvaffaq bo'ldi. U sochlarini uzun qilib o'stirdi va shu tufayli qal'aga kirishga muvaffaq bo'ldi. Yigitning ayyor rejasi tezlikda oshkor bo'ldi, malika esa unga oshiq bo'lib, ular ajoyib to'y o'tkazdi. Balkim shuning uchun Qirq-Qiz qal'asining xarobalari yengib bo'lmaydigan qal'aga o'xshaydi. Lekin aslida bino keng yo'lakli va ko'p sonli xonalari bo'lgan katta saroylardan biri edi. Agar siz qadimiy qal'ani ziyorat qilsangiz, ilgari mahalliy chillaxona vazifasini o'tagan g'ayrioddiy xonaning qoldiqlarini ko'rishingiz mumkin. U yerda hanuzgacha shoxlariga mayda matochalar bog'lab qo'yilgan eski daraxt bor. Afsonaga ko'ra, onalik baxtiga erishish istagida bo'lgan farzandsiz ayollar bu yerga kelib, zurriyot uchun ibodat qilib, bo'lg'usi bolalarning ismlari yozilgan kichik matochalarni daraxt shoxiga bog'lab qo'yadilar. Shuningdek viloyat markazi bo'lmish Termiz shahrida 2001-yilda ochilgan, O'rta osiyoda yagona bo'lgan arxeologik muzey Termiz Arxeologiya Muzeyi ham ochilgan.

Unda hozirgi kunda 40mingdan ziyod eksponantlar joylashgan. Ushbu muzey viloyatdagi arxeologik salohiyatini ham ochib beradi. Har yili Surxondaryoga kelyotgan turistlarning asosiy qismi ushbu muzeyga tashrif buyuradi.

Xulosa qilib shuni takidlash mumkinki Surxondaryoninfg arxeologik salohiyati yuqori darajada. Ammo bundan yetarli darajada foydalanilmoqda deb ayta olmaymiz. Raqamlarga murojat qiladigan bo‘lsak 2019-yilda xorijiy turistlar soni 120ming, mahalliy turistlar soni 502ming, 2020-yil pandemiya sharoitida esa 4,200nafar chet ellik sayyohlar 14,700 ta mahalliy turistlar viloyatga tashrif buyurishgan bo‘lsa 2021-yilda esa 25ming xorijlik turistlar, 600mingdan ziyodmahalliy turistlar tashrif buyurishgan<sup>5</sup>.

Bu ko‘rsatkich avvalgi yillarga nisbatan yaxshi bo‘lishi mumkin lekin Respublika bo‘yicha yomon ko‘rsatkich hisoblanadi

### FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Surxondaryo viloyatining turizm salohiyati. Toshkent “Tafakkur” 2022 3-20b
2. Turizm: Nazariya va amalyot (darslik) M.R.Boltaboyev Toshkent “Barkamol Fayz Media” 2018. 109b
3. O‘zbekiston viloyotlarti toponimlari. Qorayev Suyun. Toshkent “O‘zbekiston Milliy ensklopediyasi” 2005. 125-135b
4. <https://lex.uz/ru/docs/-4832412> Vazirlar mahkamasining “Surxondaryo viloyati turizmni rivojlantirish tog‘risidagi” qonuni
5. [www.Surkhandaryo.uz](http://www.Surkhandaryo.uz)
6. [www.surxonstat.uz](http://www.surxonstat.uz)
7. [www.yuz.uz](http://www.yuz.uz)
8. [www.uzbektourism.uz](http://www.uzbektourism.uz)